



EKSTREMIZMNING MAZMUN-MOHIYATI, KELIB CHIQISH SABABLARI.

Jumayeva Shohzoda Baxromjon qizi
Farg`ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqola doirasida ekstremizmnining kelib chiqish sabalari, uning mazmun-mohiyati va asosiy g`oyalari haqida hamda akromiylarning qarshlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so`zlar: Ekstremizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, mutaassiblik, Akromiyalar.

Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo`ravonlik va qon to`kish bilan bir qatorga qo`yadiganlarni qat`iy qoralaymizva ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganlaridek, biz uchun muqaddas dinimiz barcha azaliy qadriyatlarimizni o`zida mujassam qilgan, biz islam dinini hurmat qilamiz va yaxshi ko`ramiz.

Hozirgi kunda yoshlarimiz o`zimizning dinimizni o`rganish maqsadida ko`plab ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishmoqda. Lekin afsuski, dinni niqob qilib olgan ba`zi ijtimoiy tarmoqlar va tashkilotlar insonlarga sof islam dinini emas, balki noto`g`ri ta`lim berish yo`li orqali o`zlarining yot g`oyalarni singdirmoqda. Natijada, bu insonlar o`z yo`llaridan adashishmoqda. Yoshlarimizning bunday yo`llarga bilib-bilmay aralashishi tufayli insonlar o`rtasida zo`ravonliklar, qon to`kilishiga sabab bo`luvchi vayronkor g`oyalarni vujudga kelmoqda.

Ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarining ildizlari uzoq tarixga borib taqalsa-da, ular hech qachon ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyot uchun bugungidek tahdid solmagan. Zero, hozirda ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo`lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda.

Ekstremizm (lot: „aql bovar qilmas darajada”, „haddan oshish”) jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga zid radikal qarashlar va harakatlarni anglatadi. Ularga diniy tus berish esa, ekstremizmga olib keladi.



Diniy ekstremizm-jamiyat uchun an'anaviy bo`lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid g`oyalarni aldov va zo`ravonlik bilan targ`ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi.¹

Ekstremistik qarashlarni barcha dinlarda buddizm, xristianlik, islomdagi turli oqimlarda ham ko`rish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar-papa hokimiysi dushmanlarini taqib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurban bo`lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o`ziga xos ko`rinishi sifatida baholaydilar.

Diniy ekstremizm ko`pchilik dinlarda mavjud bo`lib, uning tarafдорлари o`z oldilariga siyosiy maqsatlarni qo`yadi. Islom ekstremizmning aqidasiga ko`ra, birinchidan, go`yo barcha hozirgi zamon musilmon jamoalari islomiy tuslarini yo`qotganlar va „Johiliyat” asri jamiyatlariga aylangan. Bunday yondashuv hukumat va uning olib borayotgan siyosatini keskin tanqid qilish uchun asos bo`ladi. Ularning asl maqsadlari islom davlatini barpo etish va jamiyatni to`lig`icha islomlashtirish.

Diniy ekstremizm yoki ashaddiy aqidaparastlik turli ko`rinishlarda namoyon bo`ladi. Masalan, Olsterdagi „ultra” protestantlar, Yaqin va O`rtta Sharqdagi „musulmon birodarlar”, Markaziy Osiyo va Kavkazda paydo bo`lgan vahhobiylarni olishimiz mumkin. Ular jamiyat va qonunlarga deyarli bir uslubda qarshi kurash olib boradilar.

Ekstremistik harakatlar o`zining vayronkor g`oyalari bilan odamlar ongini egallabgina qolmay, diniy shiorlardan ham foydalanib jamiyatda tartibsizlik va parokandlikni keltirib chiqaradi va shu orqali hokimiyatni egallahni o`zlarining asosiy maqsadi qilib olishadi. Ular shu siyosati orqali o`zlarining vayronkor g`oyalarni jamiyatning har bir a`zosiga singdirishga hamda ijtimoiy hayotda o`zining turmush tarzini o`rnatishga urinadilar.

Diniy ekstremizm kelib chiqishining asosiy sabablardan biri - bu mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo`lishi hisoblanadi. Ongari zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar har qanday vaziyatda ham o`zları qilayotgan ishlarini to`g`ri deb biladilar. Shuning uchun ular har qanday noma`qbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Ularni bu yo`lga boshlagan rahnamolarining asl maqsadi esa, g`ayri isnoniy xarakterga ega hisoblanadi. Ularning asl maqsadi butun Osiyo hududida qadimgi Arab xalifaligini barpo ertish kerak deb harakat qiladilar. Lekin ularning asl niyati shu bilan cheklanib qolmasdan, dinni niqob qilib olib hokimiyatni qo`lga

¹ K.A.Shermuxamedov, J.A.Karimov . Ekstremizm va terrorizmga qarashi kurashning ma`naviy-marifiy asoslari. Tosh: „O`zbekiston faylasuflar jamiyat”, 2018.B.7



olishdan iborat. Bu yo`lda har qanday to`sinqi yengib o`tishga, kerak bo`lsa insonlarni qurban qilishdan ham toymaydilar.

Diniy ekstremistik tashkilotlarning asosiy faoliyat uslublari sifatida ekstremistik ruhdagi shu jumladan, „Jihod”, „shahidlik” g`oyalari targ`ib qilingan adabiyotlar, video va audio tasmalarini tarqatish, yashirin guruqlar tuzish va uning a`zolarini maxsus tayyorgarlikdan o`tkazishni ko`rsatish mumkin.

Diniy va dunyoviy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmasligi ham mutaassiblik g`oyalaring tarqalishiga sabab bo`lishi mumkin. Bu jarayonning eng xatarli jihat shuki, mutaassiblik dinning siyosiylashtirish vositasida hokimiyatga intilish, uni noto`g`ri talqin qilish bilan odamlar orasiga nifoq solish, qo`poruvchilik ishlarini amalga oshirish va g`arazli niyatlarni ro`yobga chiqarishga urinishlarida namoyon bo`ladi. Demak, diniy ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiy sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo`lishidir. Mutaassiblik diniy ekstremizm va terrorizmga zamin yaratadi.

Ekstremizm deganda odatda mavjud va umum qabul qilingan qarashlar, ta`limotlar va qadriyatlar tizimi mutlaqo inkor qiluvchi, jamiyatda qadriyatlar kompleks tazyiq va zo`ravonlik bilan o`zgartirish tarafдорлари hisoblanadi.

Umuman olganda, turli dinlardagi oqimlar, yo`nalishlar tarafдорлари payg`ambarlar tomonidan muqaddas kitoblarda bayon etilgan aqidalarni o`zgartirmaslik hamda diniy qoidalarni so`zsiz bajarishning o`zlariga ma`qul ko`radilar. Ammo islam fundamentalistlarining g`oyalari protestantlardan mutlaqo farq qiladi.

„Fundamentalizm” atamasi keng ma`noda aqidaning o`zgarmasligini e`lon qiladigan „muqaddas” kitoblardagi vahiy va mo`jizalarni qaysi ma`noda bayon etilgan bo`lsa, shu ma`noda qabul qilishni ta`lab etadigan, ayni paytda ularni majoziy yo`l bilan talqin qilishga har qanday urinishlarni rad etadigan, ko`r-ko`rona e`tiqodni aqllaridan ustun qo`yadigan dinning barcha an`anaviy yo`l yo`riqlarini qat`iy va og`ishmay bajarishni qat`iy talab qiladigan diniy yo`nalish va oqimlarni ifodalaydi.²

„Musulmon birodarlar” umumrahbar ekstremistik harakatning rahbari Said Qutb o`z vaqtida „Islam uyg`onishga muhtoj, u hech bir bahssiz bir narsani tan oladi, hokimiyatni qulatish uchun faqat kuch kerak va kuch ishlatish orqali katta va kichik barcha hokimiyat to`la yo`q qilinadi” degan o`ta reaksiyon fikrni targ`ib qilgan. Hozirgi kunda Said Qutb tarafдорлари uning fikrlarini ro`yobga chiqarishga urinmoqdalar.

² M.Rajabova. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari. Tosh: „O`zbekiston”, 2003. B.79.



Masalan, Markaziy Osiyoda turli qiyofalarga kirib yashirin faoliyat olib borgan „Hizb ut-tahrir” diniy ekstremistik partiyasining maqsadlaridan biri, Farg`ona vodiysidagi O`zbekiston ba Qirg`izistonning viloyatlarini birlashtirib halifalik tuzumiga asoslangan diniy-teokratik davlat tuzish bo`lgan. Va ular bu maqsad yo`lida bir qator terroristik faoliyatni amalga oshirdi.

Akromiyalar 1996-1997-yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi Yo`Idashov Akrom nomi bilan bog`liq. A. Yo`Idashov Hizb ut-tahrirning yetakchisi an-Nabahoniy g`oyalari asosida 12 darsga mo`ljallangan „lymonga yo`l” risolasini yozgan. Shu sababdan akromiyalarni „Imonchilar” deb ham yuritadilar.

Akromiyalar ham davlat tepasiga chiqish kabi g`arazli maqsadlarni ko`zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o`larоq xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda so`ng Farg`ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo`ladilar. Lekin bu guruhning rejalarini amalga oshmaydi va O`zbekiston Respublikasida butunlay to`xtatiladi.

Qayd etilgan faktlar chegaradosh hududlarda hushyorlikni yanada oshirishni hamda chegara hududida yashovchi aholi ichida yot g`oyalarning oldini olishga qaratilgan ishlarning ta`sirchanligini oshirish talab etiladi. Masalan, bunday tashkilotlarga mansub shaxslar Samarqand viloyatida ham kuzatilgan. 2012-yil 9-fevral kuni Samarqand viloyati, Toshloq ko`chasida yashovchi uy bekasi, 5 farzandi bor, millati o`zbek, ma`lumoti o`rta, 1970-yilda tug`ilgan Mardonova Mohigulning uyida, noqonuniy ravishda, „Xujra” tashkil qilgan va Samarqand shahar Tolmasova ko`chasi 38-uyda yashovchi, vaqtincha ishsiz, 2 nafar farzandi bor, millati o`zbek, 1970-yilda tug`ilgan Ikromov Ulug`bek hamda Payariq tumani Zarafshon MFY, Rovoch qishlog`ida yashovchi, 2 nafar farzandi bor, millati o`zbek, 1957-yilda tug`ilgan Xudoyqulova Norxonga diniy ta`limotdan saboq berib kelayotgani aniqlanib, tegishli tartibda hujjatlashtirilgan. Voqeа joyida jami 73 dona diniy mazmundagi kitoblar, biroshyura, diniy mazmundagi voqealar va 3 dona qo`l yozmalar daliliy ashyo sifatida olingan. Ushbu holat bo`yicha yuqoridagi fuqarolarga nisbatan O`zbekiston Respublikasi Ma`muriy jazo kodeksining 241-moddasi bilan ma`muriy bayonnomalar to`ldirilib, surishtiruv ishlari Samarqand shahar 4-sonli IIB xodimlari tomonidan olib borilgan.

Keltirilgan ma`lumotlardan shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, insonlar dinni yaxshi bilmaganliklari sababli ular turli xil yot g`oyalalar ta`siriga tushib qolmoqdalar. Shuning uchun yoshlarga Islom dinining asl mohiyatini to`la qonli anglatishimiz va Islom diniga muhabbat tuyg`usini uyg`otgan holda uning go`zal din ekanligini yoshlар ongiga singdirishimiz lozim.



Qachon insonda qiziqish bo`ladi, qachonki qiziqayotgan narsasi haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lganda yoki qiziqayotgan narsasi haqida to`liq ma`lumotga ega bo`lmoqchi bo`lgan insonda. Shuning uchun har bir insonning qiziqishlariga to`g`ri yondashish kerak. Ularning bilmoxchi bo`lgan narsalarini to`g`ri talqinda tushuntirishimiz zarur. Agar biz to`g`ri yo`nalishda tushuntirmsak ularni boshqa insonlar o`zlarining yot g`oyaligiga jalb qilib oladilar. Buning uchun har bir farzand o`z oilasida to`g`ri tarbiya topishi lozim. Chunki farzand yoshligidan vaqtining ko`p qismini oila davrasida o`tkazadi. Xalqizmizda bejizga „Qush inida ko`rganini qiladi” deb aytib o`tilmagan. Ota-onar farzandning tarbiyasi bilan bir qatorda mutolaa madaniyatini ham shakllantirishi lozim. Sababi insonda mutolaa madaniyati bilan bir qatorda uning ma`naviy dunyoqarashi ham shakllanadi.

Prezidentimiz tomonidan kitob mutolaasini yanada rivojlantirish maqsadida, “Bir oilaga bir kitob” dasturi ishlab chiqildi. Kitob ma`naviyatning qalb quyoshi, yot g`oyalardan saqlaguvchi qalqondir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. A. Shermuxamedov, J.A. Karimov. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma`naviy-ma`rifiy asoslari. Toshkent: „O`zbekiston faylasuflari jamiyati”-2018.
2. M. Rajabova. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari. Toshkent: „O`zbekiston”-2003.
3. A. Hasanov, O. Yusupov, K. Shermuxamedov, U. G`afurov, J. Karimov. Diniy mutaassiblik, mohiyati, maqsadlari va oldini olish yo`llari. Toshkent: „Mavarounnahr”-2013.